O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALAR” KAFEDRASI

“YASHIL IQTISODIYOTDA INNOVATSION VA INVESTITSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

(2025 yil 24-25 oktabr)



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALAR” KAFEDRASI

“YASHIL IQTISODIYOTDA INNOVATSION VA INVESTITSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

(2025 yil 24-25 oktabr)

SAMARQAND 2025

— ishsizlik darajasi 6,2% ga kamaytiriladi;
— uzluksiz ta’lim tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-630-son. https://lex.uz/ru/docs/4910391
2. Sobirov, I. X., and SH. Atabaeva. "Raqamli iqtisodiyot sharoitida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish usullari." *Arxiv nauchnыx issledovaniy* 2.1 (2022).
3. Sobirov, I. X., and R. Ganiev. "Raqamli bank-taraqqiyot talabi." *BBK 65.011. 6 I 26* (2021): 642.

Janzakov Bekzot Kulmamat o‘g‘li – “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitet dosenti, PhD.

YASHIL IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TURIZM RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING MUHIM XUSUSIYATLARI

Annotasiya. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda turizm raqobatbardoshligini oshirishning muhim xususiyatlari asoslanilgan hamda respublika milliy turizmini yashil iqtisodiyotga mos rivojlantirish bo‘yicha muallif qarashlari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: turizm bozori, raqobatbardoshlik, “yashil makon”, turistik xizmat, turistik oqim, turistik subyekt, xizmat ko‘rsatish.

Respublikamizda yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish uchun iqtisodiyotni boshqa tarmoqlari singari turizm sohasida juda katta ichki imkoniyatlari mavjud. Tadqiqotlar natijasida shuni ko‘rsatadiki, respublika milliy turizmini yashil iqtisodiyotga mos rivojlantirishda turizm sohasining quyidagi turlariga ustuvorlik berish muhim xisoblanadi.

Birinchidan, yashil iqtisodiyot ehtiyojlariga mos ekologik turizmni rivojlantirish;

Ikkinchidan, respublikada ekologik toza hududlarni kengaytirish ehtiyojlaridan kelib chiqib, rekratsion turizmga ustuvorlik berish;

Uchinchidan, yashil hudud sifatida namoyon bo‘ladigan agroturizm, qishloq turizmi kabi turlarga alohida ahamiyatni oshirish;

To‘rtinchidan, respublikamizda ekologik toza muhitni yaratish imkoniyatini shakllantiruvchi “yashil makon” talablariga mos turizmining yangi turlarini rivojlantirish va boshqa shu kabilardan iborat.

Yashil iqtisodiyotni rivojlanishiga qiziquvchi sayyohlarni jalb etishda alohida olingan mehmonxonalarda samarali foydalanish yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratadi.

Shunday ekan biz, mazkur tadqiqot ishida ekologik toza muhit imkoniyatlarini yaratuvchi sayyohlarga yetarli shart-sharoitlarni yaratuvchi joylashtirish subyektlari tadqiq qilindi.

Ayniqsa bu borada Samarqand shahridagi “Nodir Samarqand” mehmonxonasi tajribalari alohida ahamiyatga ega. Mazkur mehmonxona nisbatan kichik mehmonxonalardan biri bo‘lishiga qaramasdan yuqori sifatli xizmat ko‘rsatishni tashkil etish va turistik mahsulotni diversifikasiya qilish orqali turizm bozorida mustahkam o‘rnashib olishga erishdi. Shu nuqtai nazardan, bizning fikrimizcha, mazkur mehmonxona tajribasidan boshqa mehmonxonalar faoliyatida foydalanish respublika miqyosidagi yashil iqtisodiyotga qiziquvchi ekoturizm imkoniyatlarini yanada kengaytirishga shart-sharoit yaratuvchi sayyohlar oqimini keskin oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Binobarin, yuqoridagi xulosa va ko‘rsatkichlar mohiyatidan kelib chiqib, yuqori sifatli turizm bozorida raqobatbardoshlikni oshirish tendensiyalari quyidagilar bilan izohlanadi, ya’ni:

birinchidan, turistlarga xizmat ko‘rsatishda yuqori sifat va raqobatbardoshlikni ta’minlash standartlari va me’yorlariga mos faoliyat olib borish imkoniyati yaratiladi;

ikkinchidan, turistlarga sifatli xizmat ko‘rsatish tajriba va ko‘nikma-sining oshishi natijasida turistik subyektlarning o‘ziga ishonchi ortadi va raqobatbardosh faoliyat yuritish tizimi shakllantiriladi;

uchinchidan, respublikamizning jozibador turizm maskanlariga ko‘p son-li xorijiy va mahalliy sayyohlarni jalb etish orqali yuqori daromad olish imkoniyati yaratiladi;

to‘rtinchidan, turistlarga yuqori sifatli va malakali xizmat ko‘rsatuvchi kadrlar maktabi shakllanadi;

beshinchidan, turizmda mavsumiylik pasayadi va natijada yilning barcha fasllarida turistlarning bir xil oqimi ta’minlanadi;

oltinchidan, turizm infratuzilmasini yangilab borish zaruriyati oshib boradi va shu asosda sohada raqobatbardoshlik ta’minlanadi.

Yuqori sifatli turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish uchun ma-lakali kadrlar yetishtirish, turistik subyektlarda mavsumiylikning salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqishda konsalting xiz-matlarini joriy etish, turistik xizmatlar integrasiyasini kuchaytirish va uchun qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi.

Yuqori sifatli turistik xizmatlarga talab, avvalo, kiruvchi turistlar sonining o‘sishiga bog‘liq. Chunki, aynan kiruvchi turistlar oqimi turistik subyektlarda xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashga majbur qiladi. Shu sa-babli, kiruvchi turizm bo‘yicha statistik ma’lumotlarni tahlil qilish va ular asosida tegishli xulosa va takliflar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Turizm sohasining raqobatbardoshligiga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri bu turistlar oqimining yil davomida o‘zgarishi, ya’ni, mavsu-miylik hisoblanadi va u turistlar oqimining yil davomida tebranish xusu-siyati bilan xarakterlanadi. Umuman, mavsumiylik turizmda noaniqlikni keltirib chiqaradi va shu sababdan investorlar bu sohaga pul tikishga ehtiyot-korlik bilan yondashadi. Chunki, mehmonxonalar, kafe-barlar, transport xiz-matlari va boshqalar turistik mavsumning yuqori nuqtasida to‘liq

band bo‘lsalar, mavsum o‘tgach ma’lum vaqt davomida ishsiz qolib ketishlari mumkin. Shu sababli, turistlar oqimining tebranishini o‘rganish turistik bozorda faoliyat olib borish samaradorligini aniqlashga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, ekonometrik tahlil asosida O‘zbekiston kiruvchi turizmining mav-sumiyligining havo harorati va dollar kursiga bog‘liq baholash natijalari aniqlandi (1-rasm).

Buning uchun O‘zbekistonda oyma oy o‘rtacha temperatura va valyuta kursi-ning kiruvchi turizm mavsumiyligiga ta’sirini baholash maqsadida quyida-gi ekonometrik model ishlab chiqildi:

$$Y = -2825445{,}53 + 12783{,}26 * X_1 + 383{,}49 * X_2$$

Y-xorijiy turistlar soni;

X_1- O‘zbekiston bo‘yicha oyma oy o‘rtacha temperatura;

X_2-o‘rtacha so‘m-dollar kursi.



1-rasm. Havo temperaturasi va dollar kursining turizm mavsumiyligiga ta’siri

Model natijalarining ko‘rsatishicha, havo temperaturasining bir dara-jaga ko‘tarilishi xorijiy turistlar sonini 12783 taga, dollar kursining 1 so‘mga ortishi esa, turistlar oqimini 383 kishiga ko‘payishiga olib keladi. Ekonometrik modelning boshqa muhim parametrlari quyidagi 1-jadvalda aks ettirilgan.

1-jadval

Ekonometrik modelning statistik ko‘rsatkichlari

O‘zgaruvchi omillar	Miqdor ko‘rsatkichlari	Standart xato	t	P>|t|	R-kvadrat	P>F
O‘rtacha havo temperaturasi	12783,26	3813.72	3,35	0,008	0.65	0.008
O‘rtacha dollar kursi	383,49	215.95	1,77	0,10		
Konstanta	-2825445,53	1788823,03	-1,57	0,14		

Jumladan, determinasiya koeffisiyenti (R-kvadrat)ning qiymati 0,65ga teng bo‘lib, u modelda nazarda tutilgan xorijiy turistlar oqimining tebra-nish darajasini ifodalaydi. Har bir omil uchun Fisher mezoni P>F qiymati-ning nolga yaqinligi ushbu model va unda e’tiborga olingan omilning to‘g‘ri tanlanganligini bildiradi.

Determinasiya koeffisiyentining nisbatan ki-chik qiymati modelga kiritilmagan boshqa muhim omillar, masalan, turizmga yo‘naltirilgan marketing xarajatlari, transport narxlari va boshqalarning ta’siri borligini bildiradi. Demak, mavsumiylikning salbiy ta’sirini kamaytirishda infratuzilmani rivojlantirish va bozor talabidan kelib chiqib xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish muhim hisoblanadi[1].

Shuningdek, xorijiy turistlarning yoshi bo‘yicha tahlilning ko‘rsatishicha, 35 dan 45 yoshgacha bo‘lgan yashil tabiatga qiziquvchi turistlar ko‘pchilikni tashkil etgani, ulardan 29,4%i O‘rta Osiyodan, 33,8%i MDH davlatlaridan, 30%i Osiyo Tinch okeani minta-qasidan ekanligi ayon bo‘ldi2. Turizmni rivojlantirish Davlat qo‘mitasi o‘tkazgan so‘rovnomaga ko‘ra 39,4% respondentlarning sayohatdan ko‘zlagan asosiy maqsadi yashil tabiatdagi ekomuhitni ko‘rish do‘stlar va qarindoshlarini ko‘rish, 33,6%ining esa dam olish, ta’til va rekreasiya yo‘nalishlariga to‘g‘ri kelgan. Ammo, ta’kidlash o‘rinliki, hozirgi kunda “O‘zbekiston Havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi tomo-nidan taklif etilayotgan yuqori narxlar tur operatorlar va tur firmalar uchun tur paketlarni sotishda noqulayliklar tug‘dirmoqda va kiruvchi turizmni rivojlantirishga ma’lum darajada to‘siq bo‘lmoqda.

Umuman, yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish uchun turizm raqobatbardoshligini oshirishda sayyohlarni jalb etuvchi katta hajmda bo‘lmagan mexmonxonalarni rivojlantirish yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Janzakov B.K. Mirzaev K.D. (2019) The role of statistical analysis in ensuring the competitiveness of tourism. (In the example of Uzbekistan). International Journal of Engineering and Technology. Pp. 1038-1042.

2. Committee for development of tourism sphere of the Republic of Uzbekistan. Tourism in Uzbekistan survey 2018, P.5

3. Lovelock, C.H. (1983), “Classifying servicyes to gain strategic marketing insighs’’, Journal of Marketing, Vol. 47, pp. 9-20.

3. Silvestro, R. (1999) "Positioning servicyes along thye volume-variyety diagonal: Thye contingenciyes of servicye design, control and improvement", International Journal of Operations & Production Management, Vol. 19, No. 4, pp. 399 – 421.

4. Cook, D. P., Goh, C.-H., Chung, C.H., (1999), “Servicye typologiyes: a state of thye art survey”, Production and Operations Management, Vol. 8, No. 3, pp. 318–338.

1 Janzakov B.K. Mirzaev K.D. (2019) The role of statistical analysis in ensuring the competitiveness of tourism. (In the example of Uzbekistan). International Journal of Engineering and Technology. Pp. 1038-1042.

2 Committee for development of tourism sphere of the Republic of Uzbekistan. Tourism in Uzbekistan survey 2018, P.5